



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY SUDLAR TASHKIL ETILISHI

*Sadullayeva Farida Farxod qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 2-kurs talabasi.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'muriy sudlar tashkil etilishi, ma'muriy sudlarga taalluqli ishlar, ma'muriy sudlar vujudga kelishining huquqiy asoslari haqida fikr – mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ma'muriy sud, Mamu'riy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, ma'muriy jazo, ma'muriy huquqbuzarlik.*

“Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakat sud tizimi vakillari, o‘zbek sudyalari oldiga ana shunday haqqoniy talabni qo‘ydi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 13 iyunda sudyalar bilan bo‘lib o‘tgan birinchi tarixiy uchrashuvda so‘zlagan nutqida sud tizimini fuqarolarimizning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan adolat qo‘rg‘oniga aylantirishdek ustuvor maqsad o‘z mujassamini topgan.

Yurtboshimiz 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, «Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim».

Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 134-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanishi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishini ham ta'minlaydi.

Ma'lumki, ixtisoslashgan sudlar sudga taalluqli ishlarni o‘z vaqtida, sifatli

ko'rish va hal etish, odil sudlovning samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biridir.

O'z navbatida mamlakatimizda ma'muriy sudlarni tashkil etish zarurati quyidagi omillar bilan ham belgilanadi:

-jinoiyat qonunchiligi tobora liberallashtirilib, ayrim qonunbuzarlik uchun belgilanadigan jazo choralari bosqichma-bosqich jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazilishi;

-sudlarda ko'rilayotgan fuqarolik, iqtisodiy va jinoiyat ishlariga qaraganda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarining ko'pchilikni tashkil etishi;

-fuqarolarning davlat boshqaruviga oid huquqlari va qonuniy manfaat-larini sud tartibida himoya qilishning samarali tizimini yaratish zarurati;

-davlat boshqaruv organlari, ular mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, bu sohada sud nazoratini takomillashtirishning talab etilayotgani.

Mamlakatda ma'muriy sudlarni tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari, qarorlaridan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan yetarli huquqiy poydevor mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Ma'muriy sudlarni tashkil etish Prezidentning 21.10.2016 yildagi PF-4850-son va 21.02.2017 yildagi PF-4966-son Farmonlari, shuningdek 12.04.2017 yildagi O'RQ-428-son Qonuni bilan ko'zda tutilgan. Ularning ishini tashkil etish uchun yangi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksni (bundan keyin - MSYutK) ishlab chiqish va qabul qilish talab etildi.

MSYutK ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha sud ishlarini yuritishga tatbiq etilmaydi.

Ma'muriy jazolarni qo'llash ilgarigidek Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (bundan keyin - MJtK) bo'yicha amalga oshiriladi. Gap shundaki, ma'muriy sudlar o'z huquqiy tabiatiga ko'ra 2 ta har xil ishlar toifasini ko'rib chiqadi:

a) ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ma'muriy nizolar – ya'ni muhokama tashabbuskori – o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan xususiy shaxs (1.04.2017 yilgacha FPKning 3-kichik bo'limi bilan tartibga solinadi);

b) qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar (MJtKning 245-moddasiga qarang) – bu yerda, aksincha, davlat organi tashabbuskor bo'ladi, xususiy shaxs esa huquqbuzarlik sodir etishda ayblanadi va uni jazolash to'g'risidagi masala ko'rib chiqiladi.

Ishlarning mazkur ikki turini shunchaki ayni prinsiplar va qoidalar asosida ko'rib chiqishning imkoni yo'q. Bundan tashqari, ushbu bosqichda ma'muriy jazo qo'llash huquqini to'liq sudlarga o'tkazish to'g'risida gap borayotgani yo'q. Shu bois ma'muriy sudlarning ikkita kodeks bo'yicha ishlashi to'g'risidagi qaror o'zini oqlagan va mantiqlidir.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunlariga muvofiq, 2017 yil 1 iyundan boshlab ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolar va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati yangi tashkil etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) ma'muriy sudlariga o'tkazildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar, saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar, notariusning yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari harakatlarini bajarishni rad etgani yoxud ularni noto'g'ri bajargani ustidan berilgan shikoyatlar, prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi, vakolatli organning jismoniy va yuridik shaxslar manfaatini ko'zlab berilgan arizalari, davlat organining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish

haqidagi arizalar ham ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar ma'muriy sudlar sudloviga taalluqli bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan barcha ishlar, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolar toifasiga kiradigan ishlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekiston sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sudyalarga katta imtiyoz berishi barobarida ularning zimmasiga yuksak mas'uliyat ham yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklarini sudlar tomonidan samarali tarzda himoya qilinishini ta'minlashda, ishlarni ixtisoslashgan ma'muriy sudlar tomonidan to'g'ri va o'z vaqtida himoya qilinishini ta'minlashda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks muhim o'rin tutadi. Ma'muriy odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolati sifatida mazkur Kodeksning qabul qilinishi fuqarolarning ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida himoya qilishning samarali tizimini yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoya qilinishi ta'minlashga hamda davlat boshqaruvi organlarining fuqarolar va tashkilotlarga daxldor bo'lgan xatti-harakatlari (qarorlari)ning qonuniyligi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma / K.J.Gaziyev, A.A.Axrorov

#### **FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI**

1. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti
2. [constitution.uz](http://constitution.uz)
3. [Norma.uz](http://Norma.uz)
4. [standart.uz](http://standart.uz)
5. [kun.uz](http://kun.uz)